

Talabalarning yozma ishlarida grammatik uyg'unlikka erishish usullari

Rakhimova Gulchekhra
gulchekhra.rahimova6665@gmail.com
O'qituvchi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning yozma ishlarida grammatik uyg'unlikka erishish masalasi tahlil qilinadi. Grammatik uyg'unlik matnning izchilligi, tushunarlilik va mantiqiy bog'lanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida grammatik uyg'unlik tushunchasi, uning lingvistik asoslari hamda yozma ishlarida uchraydigan asosiy xatolar – zamon uyg'unligi, so'z shakllari, referensial moslik va sintaktik nomuvofiqliklar o'rganildi. Ushbu xatolar yuzaga kelishining sabablari va ularni bartaraf etish usullari yoritildi. Maqolada kommunikativ yondashuv, refleksiv yozuv, peer-review (o'zaro tahlil), bosqichma-bosqich tahrirlash hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi samarali metodik yondashuvlar tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari talabalarning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va grammatik xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: akademik yozuv, grammatika, grammatik uyg'unlik, metodik yondashuvlar, peer-review, refleksiv yozuv, yozma nutq.

Практическое применение музыки и песен в обучении иностранным языкам

Рахимова Гульчехра
gulchekhra.rahimova6665@gmail.com
Преподаватель

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос достижения грамматической согласованности в письменных работах студентов. Грамматическая согласованность является важным компонентом письменной речи, обеспечивающим её последовательность, понятность и логическую связь. В ходе исследования изучено понятие грамматической согласованности, его лингвистические основы, а также основные ошибки, встречающиеся в письменных работах студентов – нарушение времен, неправильное использование форм слов, референциальные ошибки и синтаксическая несогласованность. Рассмотрены причины возникновения данных ошибок и предложены способы их устранения. В статье рекомендованы такие эффективные методические подходы, как коммуникативный метод, рефлексивное письмо, взаимный анализ (peer-review), поэтапное редактирование и использование цифровых технологий. Результаты исследования способствуют развитию навыков письменной речи студентов и снижению количества грамматических ошибок.

Ключевые слова: академическое письмо, грамматика, грамматическая согласованность, методические подходы, письменная речь, рефлексивное письмо, взаимный анализ

Methods for Achieving Grammatical Coherence in Students' Written Works

Rakhimova Gulchekhra
gulchekhra.rahimova6665@gmail.com
Teacher

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

Annotation. *This article examines the issue of achieving grammatical coherence in students' written works. Grammatical coherence is an essential component of written speech, ensuring its consistency, clarity, and logical connection. The study explores the concept of grammatical coherence, its linguistic foundations, and the most common errors found in students' writing – tense inconsistencies, incorrect word forms, referential errors, and syntactic mismatches. The causes of these errors are analyzed, and methods for overcoming them are proposed. The article recommends effective methodological approaches such as the communicative approach, reflective writing, peer review, step-by-step editing, and the use of digital technologies. The results of the study contribute to developing students' written communication skills and reducing grammatical errors.*

Keywords: *academic writing, grammar, grammatical coherence, methodological approaches, peer review, reflective writing, written speech*

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar nafaqat o'z fikrlarini og'zaki, balki yozma shaklda ham aniq va izchil ifodalashga o'rganishlari zarur. Yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ayniqsa chet tillarini o'rganishda, til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi (Jalolov, 2012). Yozma ishlar talabaning grammatik bilimlarini amalda qo'llashiga, mantiqiy fikrlash va tushunarli matn yaratishga yordam beradi. Shu bois, yozma nutqda grammatik uyg'unlikka erishish zarurati ortib bormoqda.

Grammatik uyg'unlik – bu matnning sintaktik, morfologik va semantik jihatdan bir butunlikni saqlab qolish qobiliyatidir (Chomsky, 1957). Ushbu maqolada grammatik uyg'unlik tushunchasi, talabalar yozma ishlarida uchraydigan asosiy grammatik nomuvofiqliklar va ularni bartaraf etish metodlari tahlil qilinadi.

Grammatik uyg'unlik tushunchasi va uning ahamiyati

Grammatik uyg'unlik matnning grammatik struktura jihatidan izchil va mantiqiy bog'langan bo'lishini anglatadi. Chomsky (1957) fikriga ko'ra, grammatika inson ongida tug'ma ravishda shakllanadigan qoidalar tizimi bo'lib, bu qoidalar gap tuzilishining izchilligini ta'minlaydi.

Halliday (1994) esa grammatik uyg'unlikni funksional nuqtai nazardan tushuntiradi va uni matnning kommunikativ vazifasi bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, grammatika faqat qoidalarga emas, balki ma'no yaratishga ham xizmat qiladi.

Grammatik uyg'unlikka erishishning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Fikrning aniq ifodalanishi: Talabalarning fikrlari tushunarli va mantiqiy ravishda rivojlanadi.

Akademik savodxonlik: Yozma nutqda grammatik uyg'unlikka erishish talabalar uchun ilmiy ishlar va esse yozishda muhim omil hisoblanadi (Brown, 2000).

Chet tilida fikrlash: Grammatik uyg'unlikni egallagan talabalar chet tilida erkin va ravon yozishga o'rganadi.

Talabalarning yozma ishlarida uchraydigan asosiy grammatik xatolar

Tahlil natijalariga ko'ra, talabalarning yozma ishlarida quyidagi grammatik xatolar ko'p uchraydi:

1. Zamon uyg'unligining buzilishi:

“Men kecha kinoga boraman.”

To'g'ri varianti: “Men kecha kinoga bordim.”

(Brown, 2000)

2. So'z shakllarining noto'g'ri ishlatilishi:

“U juda chiroylik ko'rindi.”

To'g'ri varianti: “U juda chiroyli ko'rindi.”

(Richards & Rodgers, 2014)

3. Referensial xatolar:

“Ali kitob olib keldi. U juda qiziqarli edi.”

To'g'ri varianti: “Ali kitob olib keldi. Kitob juda qiziqarli edi.”

(Halliday, 1994)

4. Sintaktik nomuvofiqliklar:

“Kecha do‘stim men bilan uchrashdi.”

To‘g‘ri varianti: “Kecha men do‘stim bilan uchrashdim.”

(Chomsky, 1957)

Grammatik uyg‘unlikka erishish metodlari va tavsiyalar

1. Kommunikativ yondashuv:

Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan yozma topshiriqlar berish (Jalolov, 2012).

2. Refleksiv yozuv:

Talabalarga o‘z ishlarini qayta ko‘rib chiqish va xatolarini mustaqil tuzatish imkoniyatini berish (Brown, 2000).

3. Peer-review (o‘zaro tahlil):

Talabalarining bir-birining ishini tahlil qilishini tashkil etish (Richards & Rodgers, 2014).

4. Bosqichma-bosqich tahrirlash:

Talabalarga matnni dastlab mazmunan, keyin grammatik jihatdan tahrir qilish ko‘nikmasini o‘rgatish (Halliday, 1994).

5. Texnologiyalardan foydalanish:

Grammarly, QuillBot kabi onlayn platformalardan foydalanish orqali yozma ishlarni avtomatik tahlil qilish (CEFR, 2001).

Talabalarining yozma ishlarida grammatik uyg‘unlikka erishish o‘quv jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar katta ahamiyatga ega. Grammatik uyg‘unlikka erishish uchun talabalarni faollikka undaydigan, ularning mustaqil fikrlashi va yozma nutqdagi xatolar ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradigan samarali metodik yondashuvlar kerak. Ushbu bo‘limda grammatik uyg‘unlikni rivojlantirish uchun eng samarali metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar yoritiladi.

2.3.1. Kommunikativ yondashuv

Kommunikativ yondashuv til o‘rganish jarayonini real hayotiy muloqotga yaqinlashtirishga asoslanadi. Talabalar grammatik qoidalarni o‘rganish bilan birga, ularni amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu yondashuv orqali grammatik uyg‘unlik o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqdagi faol ishtirokini ta‘minlaydi.

Amaliy tavsiyalar:

- Talabalarga mavzuga oid turli yozma topshiriqlar berish (masalan, elektron pochta yozish, blog maqolasi yaratish).

- Matn yozish jarayonida bog‘lovchi vositalar va referensial birliklarni to‘g‘ri qo‘llashga yo‘naltirilgan mashqlar ishlab chiqish.

- “Rol o‘ynash” texnikasidan foydalanish – talabalar turli hayotiy vaziyatlarga asoslangan matnlar yozadi va bu jarayonda grammatik uyg‘unlikka e‘tibor qaratadi.

2.3.2. Refleksiv yozuv

Refleksiv yozuv talabalarining o‘z ishlarini tahlil qilish, o‘z xatolarini aniqlash va ularni mustaqil tuzatishga o‘rgatadi. Ushbu usul orqali talabalar yozma ishlarida grammatik uyg‘unlikka erishish uchun o‘z fikrlarini qayta ko‘rib chiqish va tuzatish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Amaliy tavsiyalar:

- Talabalarga yozgan matnlarini qayta ko‘rib chiqish va xatolarni topish uchun vaqt berish.

- “O‘zini baholash varaqasi” tuzish – bunda talabalar matnlarini tuzatish uchun grammatik jihatlariga alohida e‘tibor berishadi (zamon, kelishik, bog‘lovchilar va referensiyalar).

- Talabalarga o‘z fikrlarini aniq va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalash uchun “Ikkinchi imkoniyat” usulini joriy qilish – talaba birinchi versiyada qilgan xatolarini tahlil qilib, ikkinchi versiyani yanada yaxshilangan shaklda qayta yozadi.

2.3.3. Peer-review (o‘zaro tahlil)

O‘zaro tahlil talabalarining bir-birining ishini ko‘rib chiqishi va baholashi orqali xatolar ustida ishlashga imkon beradi. Ushbu metod talabalarda grammatik uyg‘unlikka nisbatan yanada chuqurroq tushuncha hosil qiladi, chunki ular nafaqat o‘z xatolarini, balki guruhdoshlari yozma ishlaridagi xatolarni ham ko‘ra boshlaydi.

Amaliy tavsiyalar:

- Talabalarni juftlik yoki kichik guruhlariga ajratib, bir-birlarining yozma ishlarini tekshirishni tashkil qilish.

- Talabalar tekshirgan ishlarida uchragan grammatik nomuvofiqliklarni muhokama qilish va to‘g‘ri variantlarni birgalikda ishlab chiqish.

- Har bir talaba o‘z tekshirgan ishi bo‘yicha fikr-mulohaza yozadi va bu jarayon orqali yozma nutqdagi grammatik uyg‘unlikka qanday erishish kerakligini muhokama qiladi.

2.3.4. Bosqichma-bosqich tahrirlash usuli

Ushbu metod talabalarining yozma ishlarini bosqichma-bosqich tahrirlash orqali grammatik uyg‘unlikka erishishiga yordam beradi. Birinchi bosqichda matnning umumiy mazmuni va tuzilishiga e‘tibor qaratiladi, ikkinchi bosqichda esa grammatik xatolar tahlil qilinadi, so‘nggi bosqichda stilistik yaxlitlik va nutq ravonligi ustida ishlanadi.

Amaliy tavsiyalar:

- Talabalarga bir mavzuda avval qisqa matn yozdirish va uni mazmunan tahlil qilish.
- Keyin xuddi shu matnni grammatik jihatdan to‘g‘rilashga e‘tibor qaratish.
- Yakuniy bosqichda esa matn stilistik jihatdan yanada izchil va tushunarli bo‘lishi uchun tahrir qilish.

2.3.5. Raqamli texnologiyalardan foydalanish

Zamonaviy o‘quv jarayonida turli onlayn platformalar va texnologik vositalardan foydalanish grammatik uyg‘unlikni shakllantirishda samarali natija beradi.

Sun‘iy intellekt asosida ishlaydigan grammatik analizatorlar talabalar yozgan matnlarni tahlil qiladi va xatolar haqida darhol teskari aloqa taqdim etadi

Amaliy tavsiyalar:

- Grammarly, QuillBot yoki boshqa onlayn platformalardan foydalanish orqali talabalar o‘z matnlarini mustaqil tekshirishga o‘rgatiladi.

- Talabalarga grammatik tahlil va xatolar ustida ishlash uchun maxsus interfaol dasturlar beriladi.

- Yozma ishlarni raqamli formatda topshirish orqali avtomatik baholash tizimlaridan foydalanish.

Grammatik uyg‘unlikka erishish uchun samarali metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ yondashuv, refleksiv yozuv, o‘zaro tahlil, bosqichma-bosqich tahrirlash va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi usullar talabalar yozma ishlarida grammatik uyg‘unlikni mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar talabalarni nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri yozishga, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xatolar ustida ishlashga o‘rgatadi.

Xulosa

Talabalarining yozma ishlarida grammatik uyg‘unlikka erishish – ularning chet tilida mantiqiy, izchil va tushunarli fikr bildirish qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Yozma nutq talabaning lingvistik bilimlarini, grammatik ko‘nikmalarini va ijodiy fikrlash darajasini aks ettiradi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarining grammatik uyg‘unlikka erisha olmasligining asosiy sabablari – ona tilining ta‘siri, grammatik qoidalarni nazariy bilish bilan amalda qo‘llash o‘rtasidagi uzilishlar va samarali metodik yondashuvlarning yetishmasligi bilan bog‘liq.

Grammatik uyg‘unlik tushunchasi Chomsky (1957), Halliday (1994) va Vygotsky (1986) kabi tilshunoslarning nazariy qarashlari asosida yoritildi. Ushbu nazariyalar grammatik uyg‘unlikni nafaqat sintaktik va morfologik jihatlari, balki matnning semantik va kommunikativ mazmuni bilan ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqotda aniqlangan asosiy xatolar – zamon uyg‘unligining

buzilishi, soʻz shakllarining notoʻgʻri ishlatilishi, referensial xatolar va sintaktik nomuvofiqliklar talabalarining yozma ishlarining sifati va tushunarligiga salbiy taʼsir koʻrsatishi aniqlandi.

Grammatik uygʻunlik – bu matnning grammatik tuzilishi va uning mazmuni oʻrtasidagi bogʻliqlikni taʼminlaydigan lingvistik hodisa boʻlib, fikrning mantiqiy, izchil va tushunarli tarzda ifodalanishini taʼminlaydi. Ushbu tushuncha tilshunoslikda keng oʻrganilgan boʻlib, u asosan matn birligi va matn kohezivligi bilan chambarchas bogʻliq.

Grammatik uygʻunlik, eng avvalo, matndagi gaplar va soʻzlar oʻrtasidagi grammatik bogʻlanishlarni anglatadi. Bunda gapning ichki tuzilishidagi soʻz turkumlari, vaqtlar, kelishiklar, shaxs-son mosligi kabi grammatik elementlar bir-biri bilan mantiqiy va grammatik bogʻlanib, matn yaxlitligini yuzaga keltiradi.

Tilshunos olim M. Xollidey grammatik uygʻunlikni matn koheziyasining asosiy unsurlaridan biri deb hisoblaydi.

Mazkur maqolada tavsiya etilgan metodik yondashuvlar grammatik uygʻunlikka erishish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Jumladan:

- Kommunikativ yondashuv talabalarga grammatika qoidalarini real hayotiy kontekstda qoʻllash imkonini beradi.

- Refleksiv yozuv talabalarining oʻz ishlarini tahlil qilish, xatolarini tushunish va tuzatish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

- Peer-review (oʻzaro tahlil) esa talabalarining bir-birining ishini tahlil qilib, oʻrganish jarayonida faol ishtirok etishga imkon yaratadi.

- Bosqichma-bosqich tahrirlash usuli esa talabalar yozma ishlarini strukturaviy, grammatik va stilistik jihatdan bosqichma-bosqich tekshirish orqali aniq va izchil matn yaratishga oʻrgatadi.

- Raqamli texnologiyalar (Grammarly, QuillBot kabi platformalar) orqali esa talabalar oʻz matnlarini mustaqil tahlil qilish va xatolarini tuzatishga koʻnikma hosil qiladi.

Tadqiqot yakunida shuni aytish mumkinki, talabalarining yozma ishlarida grammatik uygʻunlikka erishish uchun innovatsion va interfaol metodlarni qoʻllash zarur. Anʼanaviy yodlash usullaridan voz kechib, talabalarni mustaqil fikrlash va ijodiy yozishga ragʻbatlantirish kerak. Grammatik uygʻunlik nafaqat til oʻrganish jarayonida, balki talabalarining kelajakdagi ilmiy va kasbiy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishining muhim omili hisoblanadi.

Kelajakda ushbu mavzu doirasida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud. Xususan, koʻp tilli auditoriyalarda grammatik uygʻunlikka erishish strategiyalari, sunʼiy intellekt asosida ishlaydigan grammatik tahlil vositalarining samaradorligi va turli til guruhlarida grammatik uygʻunlikni oʻrgatishning psixolingvistik jihatlarini oʻrganish istiqbolli yoʻnalishlar sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, H. D. (2000). *Principles of language learning and teaching* (pp. 45–67). Pearson Education.
2. Chomsky, N. (1957). *Syntactic structures* (pp. 23–41). Mouton.
3. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment* (pp. 10–35). Cambridge University Press.
4. Halliday, M. A. K. (1994). *An introduction to functional grammar* (pp. 78–112). Edward Arnold.
5. Jalolov, J. (2012). *Ingliz tilini oʻqitish metodikasi* (pp. 56–89). Fan va texnologiya.
6. Moydinova, E. (2021). The role of modern english teaching technologies in the age of digitalization. *Scienceweb academic papers collection*.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (pp. 92–118). Cambridge University Press.
8. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and language* (pp. 121–145). MIT Press.